

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Mambetyarova Venera

Amaliy psixologiya yo'nalishi 3 bosqich talabsi

Genjamuratova Uldana Orazbay qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada oilani jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatidagi mazmunmohiyati, oilaviy nizolar, oilada axloqiy munosabatlarning xarakterli jihatlari, shuningdek, dunyo bo'yicha oilalarning ajrashish darajasi, ajrashishlarning asosiy sabablari va salbiy oqibatlari hamda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlashga qaratilayotgan jarayonlar haqida qisqacha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Oila, oilaviy nizolar, nikoh ajrimlari, ota-ona-farzand munosabatlari, iqtisodiy zarar, ruhiy tushkunlik, yosh avlod, sog'lom muhit.

Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi – ya'ni, yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig' emas. SHu ma'noda oila – inson o'z baxti va saodati, orzu-havaslarini, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir.

Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Xo'sh, eng ezgu niyatlar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o'zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro'y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjallsiz ham yashasa bo'adimi? Bu kabi savollarni yana ko'p davom ettirish mumkin. Xalqimizda bir gap bor: oshsiz uy bo'lishi mumkin, lekin nizosiz uy bo'lmaydi. Faqat, nizoning nizodan farqi bor. Bu haqda quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Nikoh ajrimlariga kelsak, bunday holat Sharq xalqlarida ham, bizda ham sodir bo'lgan. Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo'lgan omillar sifatida avvalo, er yoki xotinda to'ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko'p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan "til" topishib ketishi, boobro' va mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo'rlik bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepushtligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, iqtisodiy nochor yosh oilaning o'z ro'zg'orini yurita olmaganligidan ayolning boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo'lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan. Muhimi shunki, nikohning barbod bo'lishidagi tashabbus asosan erkak kishining qo'lida bo'lgan. Agar u xohlasagina nikoh barbod bo'lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko'rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki, tosh bo'ron qilinganligi to'g'risida qadimgi tarixdan, eski kinofilymlardan ma'lum. Boshqa xalqlarda ham o'ziga xos an'analar mavjud bo'lgan.

Rossiyada o'tkazilgan 1999-yilgi tadqiqotlarda nikoh ajrimlarining asosiy sabalari sifatida quyidagilar qayd etilmoqda (turli yoshli so'raluvchilarning jami soniga nisbatan foiz hisobida) moddiy, maishiy muammolar – 55; er yoki xotinning ichkilikka ruju qo'yishi – 39; yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarining pastlab ketishi – 27; er-xotin xiyonati – 19; psixologik mos kelmaslik – 17; oilaviy hayotning mazmunsizligi – 12; boshqa birovni sevish qolish – 11; farzandlarning yo'qligi –

7; boshqa sabablar – 2; javob berishga qiynalغانlar – 6.

Har qanday oila o'z hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi, ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar sharoitida amalga oshiriladi. Ziddiyat qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlarning to'qnashuvi sifatida tavsiflanadi. Oilaviy mojarolar nizolarga bo'linadi: turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar, har bir turmush o'rtog'ining turmush o'rtog'i va ota-onasi, buvisi va buvisi. Oilaviy munosabatlarda oilaviy nizolar asosiy rol o'ynaydi. Ular, ehtimol, turmush o'rtoqlarning ehtiyojlarini qondirmaslikdan kelib chiqadi. Tashqi omillar oilaviy nizolarning paydo bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda: ko'p oilalarning moddiy ahvolidan yomonlashishi; turmush o'rtoqlardan birining (yoki ikkalasining) ish joyida ortiqcha ish bilan ta'minlanishi; turmush o'rtoqlardan birini normal ish bilan ta'minlashning iloji yo'qligi; uylarining uzoq vaqt yo'qligi; bolalarni uyushtirish uchun imkoniyat yo'qligi bolalar muassasasi va boshqalar. Ko'pchilik uchun ajralish dushmanlikdan, yoqtirmaslikdan, aldashdan va ularning hayotini qoraytirgan narsalardan xalos qiladi. Albatta, bu ham salbiy oqibatlariga olib keladi. Ular ajralishlar, bolalar va jamiyat uchun har xil. Ajralishda eng zaif tomon odatda bolalari bo'lgan ayoldir.

Gap nikoh-oila munosabatlari haqida borar ekan, shubhasiz jiddiy muhokama qilinadigan masalalar qatorida nikoh-oila munosabatlarining buzilishi, er-xotinlarning ajralish muammosi turadi. Nima uchun oilalar buziladi? Ajralish o'zi nima? Ajralish bu yaxshimi yoki yomonmi? Oilalarning ajralishiga yo'l qo'yish kerakmi?

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini

kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.⁴ Shu bois oilaviy ajrimlar bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Oila insonning suyanchi sanaluvchi muqaddas dargoh bo'lsada, ba'zi yosh juftliklar o'z oilaviy munosabatlarini saqlab qola olmaydi. Muammolar yechimi sifatida ajrashish tanlanadi.

Ajrashishning asosiy sabablari nimada?

Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tomonidan har yili ajralishlarning global koeffitsiyenti berib boriladi. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra, nikohdan ajrashish statistikasi bir qator ta'sirchan omillar tufayli keskin o'zgarib bormoqda. Dunyo bo'yicha ajrashishga juftliklarning o'zaro mos kelmasligi, xiyonat, giyohvandlik/alkogolga qaramlik, moddiy yetishmovchilik hamda jismoniy/ruhiy zo'ravonlik katta ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, o'zbek oilalarning ajralishlariga uchinchi shaxslarning aralashuvi, qaynona-kelin munosabatlari, farzandsizlik, yosh oilalarning o'z uy-joyiga, daromad manbaiga ega emasligi kabi omillar ham katta ta'sirga ega. Odatda ajralishlarning sabablari har xil, ba'zilari juda ahamiyatsiz, boshqalari esa yo'q. Ajrashmoqchi bo'lgan er-xotin uchun muhim bo'lgan narsa boshqa juftlik uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Qanday sabab bo'lmasin ajrashish yoqimli holat emas, oila uchun ham jamiyat uchun ham zararlari ko'p.

Qanday salbiy oqibatlar mavjud?

Ajrashish bolalar uchun ayanchli kechadi. Ko'pgina bolalar o'z fikrlariga ko'ra otaonalarining ajrashishlarida o'zlarini ayblashadi, aybdorlik qayg'uga sabab bo'ladi. Ajrashish bolalar ta'limiga salbiy ta'sir o'tkazib, o'quv jarayoni sustlashishiga yoki ta'lim olish imkoniyatlari uchun moddiy ta'minot cheklanishiga olib keladi. 2011-yilda Wisconsin-Madison universiteti tomonidan

o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ajrashgan ota-onalar farzandlari aksariyat holatlarda matematika va ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha sinfdoshlaridan ancha orqada qoladi. Oila dinamikasi va moliyaviy ahvoning sezilarli darajada o'zgargani sababli, ajralgan oilalardan chiqqan bolalar boshqa bolalarga qaraganda jinoyatchilikka moyil bo'ladi. Ba'zan bolalar o'zlariga nisbatan ishonchsizlini his qiladi.

2009-yilda Mishcon de Reya yuridik firmasi 20 yil davomida ajrashgan oilalarda yashagan 2 ming kishi o'rtasida tadqiqot o'tkazdi. Natijalarga ko'ra ularning 42 foizi hayoti davomida turli tajovuzlarga guvoh bo'lganini, 49 foizi tushkunlikka tushgan ota-onalarini yupatishga, 24 foizi yolg'on gapirishga majbur bo'lganligini aytgan. Buning oqibatida har ularning har 10 tasidan bittasi jinoyatchiga aylangan va 8 foizi o'z joniga qasd qilgan.

Ajrimlarni oldini olish uchun nima qilish kerak? Jamiyatimizda oilalarni saqlab qolish, ajrimlar sonini qisqartirish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, yosh oilalarni ish, uy-joy, real daromad bilan ta'minlash darajasini oshirish lozim. Bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda diniy bilimni kuchaytirish, oila muqaddasligi g'oyasini singdirish shart. Yarashtiruv komissiyalari faoliyatini takomillashtirish, nizoli oilalar bilan doimiy ravishda aloqada bo'lishning yangi mexanizmlarini joriy etish, fuqarolarga har bir oila davlat muhofazasida ekanligini amalda his qildirish kerak. Bizningcha, ajrimlarni jamiyatda kamaytirish uchun asosiy e'tiborni nikohga qaratish lozim. Uning qadr qimmatini imkon qadar oshirish lozim. Nega? Chunki bizda nikoh arzonlar bo'lib qolgan. Asosiy e'tibor to'y va to'ygacha bo'lgan marosimlarga qaratiladi. Marosimlar birinchi o'ringa qo'yiladi. Kim nimaga qiyinchilik bilan erishsa, uni shunchalar qadrlashi tabiiy, albatta. Hozirda esa o'zimizning shaxsiy orzu-havaslarimiz tufayli yoshlarimizga nikoh va kelin bo'lmishni osongina berib qo'yayotgandekmiz.

Xo'sh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish shart. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Unda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim. Masalan, oiladagi ajrimlarni oldini olishda, asosan,

yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiq. Ularda oila muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak. Oila qurayotgan yoshlar uchun oilaviy munosabatlarni to'liq tushuntiradigan va er-xotin haq-huquqlarini mukammal anglatadigan, diniy va dunyoviy bilimlar bir tizimga solingan maxsus o'quv dastur ishlab chiqilishi kerak. Qonuniy nikoh tuzilmasidan avval mana shu dasturni majburiy tartibda yoshlarga o'qitish zarur. Shundagina ularda oila va uning muqaddasligi, diniy arkonlar va majburiyatlar haqida har ikkala yoshda to'liq tushuncha hosil bo'ladi. Bu esa, albatta, oila mustahkamligiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oilaviy ajrimlar bugung kunda dolzarb muammo, jamiyatimizning og'riqli nuqtasiga aylanib ulgurdi. Yurtimizda jar yoqasiga kelib qolgan oilalarni asrab qolishga, bolalarni tirik yetim, onalarni tul qilmaslikka jiddiy e'tibor qaratilayapti. Mahalla faollari, diniy ulamolar, ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotiga daxldor tashkilotlar va keng jamoatchilik sa'y harakatlariga qaramay, afsuski, oilaviy ajrimlar soni keskin kamaymayapti. Xo'sh, nega ajrimlar, oilada nizoli holatlar vujudga kelayapti. Oqibatlar o'rganilganda, oilalarning ajralib ketishiga moddiy yetishmovchilik, uchinchi shaxs aralashuvi, befarzandlik, jufti haloliga xiyonat, uzoq vaqt birga yashamaslik, o'zaro bir-birini tushunmaslik sabab bo'layotgani oydinlashadi. Tan olish kerak, oilalarning buzilib ketishiga qaynona kelin munosabatlarning yomonlashuvi, achinarlisi, jahl ustida aytilgan birgina achchiq gap ham sabab bo'lmoqda. Mana shunday vaziyatlarda azal-azaldan oila keksa, mahalla nuroniylari tomonidan uchqunning alanga olmasligi choralari ko'rilgan. Ya'ni yoshlarga pand nasihatlar, ibratli voqealar so'zlab berilgan. O'ylanmay tashlangan qadamlarning og'ir oqibatlari va asoratlari haqida ogohlantirilgan. Har bir oilaviy ajrimga jamiyatning katta fojiasi sifatida qaraladigan fursat yetib keldi. Har bir insonning oilaviy baxt topishga, hayotini tinchlik totuvlikda kechirishga haqqi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygozlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T: 2007-yil

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. Иванова Л.В. Ваша свадьба. – Смоленск: Русич, 1999. – С. 78-84.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilalarda-ajralish-va-uning-oqibatlari>
4. <https://kun.uz/uz/news/2021/04/06/ajrimlar-soni-kop-bolgan-hududlar-malum-qilindi>
5. <https://yuz.uz/uz/news/oilalarni-saqlab-qolishga-har-birimiz-masulmiz>